
Tuman hokimi “Loyson” mahallasida bo’ldi

Qo’shtepa tumani hokimi A.Abdullayev va tuman IIB boshlig’i, 3-sektor rahbari I.Xamroqulovlar “Loyson” mahallasida bo’lib, mas’ullar bilan mahalladagi o’zgarishlar, kelgusi vazifalar hamda yechimini kutayotgan muammoli masalalarni birgalikda hal etish yuzasidan muloqot qildilar.

Tashrif davomida mahalladagi ijtimoiy soha ob’yektlari ham o’rganildi. Shuningdek, kam ta’minlangan va ehtiyojmand oila D.Karimovning yashash sharoiti bilan yaqindan tanishilib, sharoitlarni yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Hokim tashrifi chog’ida D.Karimovning turmush o’rtog’i F.Karimovaning ishsiz ekanligi aniqlanib, 22-umumiy o’rtta ta’lim məktəbida hozirda bo’sh turgan farrosh lavozimiga ishga joylashtirildi.

2025-01-22 09:30:09